

**ISLOM HUQUQI MANBAALARI VA ULARNI O'RGANISHNING ASOSIY
XUSUSIYATLARI.**

*Andijon Davlat Universiteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari
1-bosqich talabasi*

*Odilova Azizaxon Yorqinboy qizi
azizaxonodilova@gmail.com*

*Andijon Davlat Universiteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari
1-bosqich talabasi*

*Xosilova Fotimaxon Islomjon qizi
fotimaxonxosilova@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqola, Islom huquqi manbaalari va ularni o‘rganishning asosiy xususiyatlari haqida yoritilib, Islom dini va islam huquqshunosligi o‘zida mukammal hukmlarni mujassam etgan tizim sifatida Sharqdagi bir qator mamlakatlarda davlat va huquq rivojlanishiga, ayniqsa, ushbu mamlakatlardagi inson huquqlari, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy munosabatlarni ta’minlashga chuqr ta’sir ko‘rsatgan. Islom huquqining asosiy manbalari buyuk huquqshunoshlar ya’ni faqihlar tomonidan yakdillik bilan tan olingan. Usulul-fiqhda manbalar “adilla” (dalillar) atamasi bilan ifodalanadi.

Kalit so‘zlar: Islom huquqi, Qur’oni karim, Payg‘ambar, sura, oyat, sunnat, ijmo, qiyos, fiqh, manba, qonun, dalil, huquq.

XX asrning ikkinchi yarmi xalqaro huquqning rivojlanishida yangi sifat bosqichini boshlab berdi. Bu xalqaro-institutsional tizimning takomillashuvida, norma ijodkorlik jarayonidagi tub o‘zgarishlarda, xalqaro huquq manbalari tizimining kengayishida, xalqaro huquq subyektlari sonining oshishida yaqqol aks etdi. Fantexnika sohasidagi misli ko‘rilmagan yutuqlar, uchuvchi va suzuvchi qurilmalarning yangi avlodi, yirik inshootlar va qudratli intellektual salohiyatga ega mikrosxemalarning paydo bo‘lishi xalqaro-huquqiy munosabatlarni tizimini murakkablashtirdi. Xalqaro huquqning yangi obyektlari vujudga keldi.

Asrimiz boshidagi globallashuvning yangi to‘lqini barcha sohalarda bo‘lgani kabi xalqaro huquq istiqboliga ta’sir etuvchi omillar qamrovini kengaytirdi. Xalqaro huquqning universallashuvi, ya’ni umumbashariy ko‘lam kasb etish jarayoni yanada kuchaydi. Endilikda xalqaro huquq normalari oddiy individlarning huquqlarini himoya qilish barobarida ularning kundalik hayotiga tobora chuqurroq ta’sir ko‘satmoqda.

Individ xalqaro huquq subyektiga aylandi, deyish uchun barcha asoslar yetilib kelmoqda.

Islomning gumanistik g‘oyalari islom xalqaro huquqi – siyarga singdirilgan. “Siyar” tushunchasi islom millatining boshqa xalqlar bilan xalqaro aloqalariga oid qoida va usullarining umumiyligi majmuidir yoki musulmonlarning xoh davlatlar, xoh individlar miqyosida bo‘lsin, boshqa dinga e’tiqod qiluvchilar bilan aloqalarida rioya etilishi lozim bo‘lgan qoidalarni belgilab beruvchi islom huquqining alohida sohasidir.

Shu o‘rinda eslatib o‘tish joizki, islom xalqaro huquqini uch xil ma’noda tushunish lozim.

Birinchidan, islom xalqaro huquqi bu – XX asrga kelib to‘liq shakllangan va bugungi kunda samarali amal qilib kelayotgan universal xalqaro huquqdan bir necha yuz yilliklar oldin, VIII-X asrlarda paydo bo‘lib, qariyb ming yil davomida musulmon davlatlarining o‘zaro va ularning boshqa madaniyatga mansub davlatlar va xalqlar bilan aloqalarini tartibga solib kelgan huquqiy tizimdir. Universal xalqaro huquqning shakllanishi natijasida u global ahamiyatini yo‘qotdi va bugungi kunda ayrim islom davlatlari orasida muayyan sohalardagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi mintaqoosti huquqiy tizimga aylandi. Biroq uning asosiy tamoyillari va qoidalari universal xalqaro huquqqa singdirilgan hamda ular xalqaro-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda hanuz foydalaniib kelinmoqda. Bu musulmon davlatlari bilan tuziladigan xalqaro shartnomalarda, odat huquqida, xalqaro sud amaliyotida va boshqa shakllarda ko‘zga tashlanib turadi.

Ikinchidan, islom xalqaro huquqi – xalqaro-huquqiy amaliyot tajribasi va islom xalqaro-huquqiy doktrinasi asosida shakllangan ta’limotdir. Mazkur ta’limot islom xalqaro huquqining asosiy mazmun-mohiyati, tamoyillari, rivojlanish qonuniyatları va istiqbolini belgilovchi qarashlarni o‘zida aks ettiradi. Bu ta’limotning shakllanishida Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning hissasi ulkan bo‘lgan.

Uchinchidan, islom xalqaro huquqi islom huquqining alohida tarmog‘i sifatida mustaqil fandir. Bu fan hozirgi kunga qadar musulmon davlatlarining nufuzli universitetlari qoshidagi huquq fakultetlarida o‘qitib kelinmoqda.

Ma’lumki, o‘rta asrlar sharoitida ilm-fan, madaniyat, san’at, yoinki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotning barcha jabhalari diniy-mafkuraviy qobiqda rivoj topgan. Islom xalqaro huquq ta’limoti ham islom va uning huquqiy ustqurmasi bo‘lmish islom huquqi bilan bir o‘zanda rivojlangan. Xalqaro huquqqa islom huquqi va shariat normalarining ichki huquqiy makondan yanada kengroq maydonda va ko‘lamda tatbiq etilishi sifatida qaralgan. Shariat normalarining islom huquqining ichki makonidan tashqaridagi yangi maydon (xalqaro huquq)ga ko‘chishi “tavassu”, ya’ni “yojilish” texnikasi orqali amalga oshirilgan va tushuntirilgan. Ayni paytda, diniy mafkura faqat islomdagina mavjud bo‘lgan omil emas. Butun o‘rta asrlar tadriji davomida nasroniy diniy mafkurasini ham Yevropa davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va

ilmiy hayotida yetakchi rol o‘ynagan. Buyuk Britaniyaning mashhur Oksford va Kembridj universitetlari diniy ibodatxonalar qoshida va ularning homiyligida tashkil etilganligi hamda taraqqiy etgani sir emas.

Islom xalqaro huquqining o‘ziga xos xususiyati u islom diniy e’tiqodi bilan paydo bo‘lgan edi. Bu e’tiqodni yoyish va universallashtirish islomning o‘sha paytdagi asosiy maqsadi ekan, jihod urushlari yog‘dusida islom xalqaro huquqi xususida urush harakatlarini olib borish va qo‘lga kiritilgan o‘ljalarmi taqsimlash qoidalarining majmuasi shaklidagi dastlabki tasavvurlar ham paydo bo‘lgan. Biroq keyinchalik urushlarning nihoyasi ko‘ringach, boshqa millatlar bilan tinchlik holatida hamjihat bo‘lib birga yashash va o‘zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish zarurati oydinlashib borgan. Mazkur omil ham siyarning rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan, albatta.

Ayni paytda, islom xalqaro huquqini islom huquqidan butunlay ajratib olish mumkin emas. U islom huquqining xalqaro miqyosga yoyilgan normalari xolos, degan qarashlar ham bugungacha yashab kelmoqda.

Islom xalqaro huquqi va ta’limotining rivojlanish tadriji islom huquqi va huquqshunosligining rivojlanish bosqichlari bilan hamohanglikda qaralishi mumkin. Islom huquqi manbalarining shakllanishi va kengayib borishi islom huquqining rivojlanib borishining belgisidir. Manbalar turkumining kengayishi va ularning mahalliy odatlar bilan uyg‘unlashuvi joylarda yuzaga chiqayotgan huquqiy muammolarga tezkor yechim topishga imkon berardi. Shu o‘rinda islom huquqining rivojlanish davrini turli mezonlar asosida turlicha davriylashtirish mumkin. Ba’zi huquqshunoslар norma ijodkorligi – ijtihog subyektlari va tabiatiga ko‘ra uni 6 ta bosqichga ajratishadi: Payg‘ambar davri (610-632-yy.), sahabalar davri (taxminan 632-700-yy.), tobiinlar davri (VIII asr), mujtahidlar davri (IX-XI asr), muxarrijlar davri (taxminan XII asr) va muqallidlar davri (XII asrdan keyingi davr).

Hozirda ko‘pchilik huquqshunoslар tomonidan qabul qilingan mezonga ko‘ra, islom huquqi tarixi uch davrga bo‘lib o‘rganiladi: islom huquqining shakllanish davri (formative period) – hijriy 150-261 (milodiy 767-874), mumtoz davri (classical period) – hijriy 300-1213 (milodiy 912-1789-yillar) va yangi davri (modern period) – XIX asrdan, ya’ni 1800-yildan hozirgi kungacha.

Islom huquqi va islom xalqaro huquq ta’limotida makon omilini ham e’tibordan soqit qilmaslik lozim. Aynan makon omili, ya’ni mahalliy shart-sharoitlar islom huquqida turli mazhablarning paydo bo‘lishiga turki bergan. Hijriy III asrda (milodiy X asr boshida) sunniylik yo‘nalishdagi maktablar saralanib, ulardan faqat 4 tasi asosiy mazhab sifatida qoldi. Ko‘pincha, maktablar orasidagi farqlanish jug‘rofiy yoki makon omili bilan izohlanadi, va bu bizning nazarimizda to‘g‘ridir, chunki huquqning moddiy manbalaridagi farqlar formal manbalarning farqlanishiga ham zamin yaratadi. Xalifalik yuristdiksiyasi ostidagi mahalliy joylardagi jamoalarning yashash va tafakkur

tarzi, odat huquqi va huquqni qo'llash amaliyotidagi o'ziga xosliklar mazhablar orasidagi faqlanishga asos yaratdi, biroq maktablar orasida hukmlar hosil qilish sohasida umumlashgan asosiy tamoyillar va uslublarda ziddiyat sezilmagan.

Islom xalqaro huquqi va uning ta'limoti tarixi islom davlatchilik tarixi bilan uzviyilikda tavsif etiladi. Islomda ilk davlat 622-yilda Madinadagi 30 dan ortiq qabilalarning kelishuvi natijasida paydo bo'lган va uning asoschisi Muhammad (s.a.v) tomonidan davlat boshqaruv ishlari yuritilgan. Bundan kelib chiqadiki, birinchi musulmon davlat – bu xalqaro kelishuv natijasi edi. Keyinchalik, uning sarhadlari kengayib borishi asnosida boshqa davlatlar va o'z hududida vaqtincha yoki doimiy istiqomat qilayotgan nomusulmon jamoalar bilan aloqalar olib borish ehtiyoji tug'ilgan. O'z-o'zidan islom xalqaro huquqiga zarurat yuzaga kela boshlagan.

Muhammad payg'ambar (s.a.v)ning Madinadagi 10 yillik hayoti davri (622-633-yy.)da ilk islom davlatchiligi bilan birga islom xalqaro huquqi shakllana bordi. Shubhasiz, islom xalqaro huquqining paydo bo'lishi Payg'ambar (s.a.v.)ning Madinadagi hayoti va faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Haqiqatdan ham o'sha paytlardayoq "xalqaro" va "huquq" tabiatiga ega xalqaro huquqqa musulmonlar tomonidan asos solingan.

Markazlashgan xalifalik (632-750-yy.) davrida islom davlatining Arabiston yarimorolida mustahkamlanishi va qo'shni hududlarga yoyilishi katta muvaffaqiyat bilan amalga oshirildi. Islom huquqining birlamchi manbalari shakllandi va ular, ayni paytda, islom xalqaro huquqining manbalari sifatida ham ko'rinish berdi.

X asrda, ya'ni Abbosiylar davrining uchinchi yuz yilligida nomarkazlashuv jarayoni va islom dunyosi ichida tarqoqlanish davri boshlandi. Shunday vaziyatda xalifalik taqdiri bilan bog'liq ikki xil nazariya kun tartibiga chiqdi. Ulardan biri – xalifalik hokimiyatining monistik doktrinasi bo'lib, unga ko'ra, islom olamida yagona Alloh, bitta din, bitta shariat va unga bo'ysinadigan bitta boshqaruv bo'lishi kerak edi. Ikkinci nazariyaga ko'ra, modomiki, Allohning irodasi bilan yer usti hududlari suvlilar bilan bo'lib tashlangan ekan, demak, hududlarni bo'lib-bo'lib, yagona e'tiqod va shariat ostida alohida-alohida davlat va mamlakat shaklida boshqarish mumkin, deb hisoblangan.

Xulosa, ko'rilib turganidek, islom madaniyati va ilm-fanining barcha sohalari kabi, islom xalqaro huquq ta'limotining rivojlanishida ham Markaziy Osiyolik, xususan, hozirgi O'zbekiston hududida yashab ijod etgan ulug' allomalarning betakror xizmati bor. Afsuski, ularning merosi, ayniqsa, xalqaro huquq sohasida, hozirgacha to'liq o'rganilgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Islom tafakkuri" jurnali, 2021-yil 4-soni

2. Vahba Zuhayliy. Islom fiqhi va uning manbalari. – Bayrut: Dorul fikr. 1984. – J.1. – 429
3. Doktor Ahmad Shalabiy. Islomda qonun va sud. – Qohira: Maktabatun nahzatil arabiya,
4. Shayx Muhammad Xuzariybek. Tarixut tashri“il islomiy. – Bayrut: 1988. – 248 b.
5. S. A. Isxakov, A.R. Raxmanov. Musulmon huquqi: oliv ta“lim muassasalari uchun
6. darslik. – T.: O,zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 177 b

